

DEVO'NU LUG'OT IT-TURK ASARIDA KASB-HUNAR LEKSIKASINING
SEMANTIK TAHLILI VA IJTIMOYIY FUNKSIYASI

Dilnoza Ibrogimova

Shahrisabz davlat pedagogika

instituti doktoranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 23.10.2024

Revised: 24.10.2024

Accepted: 25.10.2024

KALIT SO'ZLAR:

*semantik tahlil,
kasb-hunar leksikasi,
ijtimoiy funksiya,
metafora, tarixiy
leksika, ramziy ma'no,
til va tafakkur,
lingvistika, etnografiya,
sotsiologika, ko'chma
(metaforik) ma'no,
asliy (denotativ) ma'no.*

Ushbu maqolada Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot it-turk" asarida uchraydigan kasb-hunar leksikasi semantik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda kasb-hunar nomlarining turkiy xalqlar hayotidagi ijtimoiy, madaniy va ma'naviy ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda so'zlarning bevosita, ko'chma va ramziy ma'nolarda ishlatilish jarayonlari, ularning metaforik kengayishi hamda ijtimoiy funksional yuklamasi izohlanadi.

Til - xalqning ma'naviy olami, mehnat jarayoni va ijtimoiy tuzilmasining in'ikosi. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot it-turk" asari turkiy xalqlar hayotining lingvistik, etnografik va sotsiologik manzarasini yoritgan noyob manbadir. Unda kasb-hunar atamalari nafaqat ishlab chiqarish faoliyatini, balki xalqning dunyoqarashi, qadriyati va jamiyatdagi mehnat taqsimotini ifodalaydi [1, 10].

Koshg'ariy tilni jamiyat bilan bog'lab o'rganadi. Shuning uchun "Devonu lug'ot it-turk"da kasb-hunar leksikasi oddiy lug'aviy birlik emas, balki tarixiy-madaniy belgilar tizimi sifatida namoyon bo'ladi [3, 25].

Quyida kasb-hunar leksikasining semantik xususiyatlari haqida mulohazalar bildirmoqchimiz:

Asarda keltirilgan kasb-hunar nomlari ma'nosiga ko'ra ikki yo'nalishda shakllanadi:

- *Asliy (denotativ) ma'no - kasbni to'g'ridan to'g'ri ifodalovchi birliklar (temirchi, ovchi, dehqon, bo'zchi);*

- *Ko'chma (metaforik) ma'no - kasb nomi orqali inson fazilatlari yoki ijtimoiy mavqe ifodalanadi.*

Masalan:

“*Ovchi*” - faqat ov qiluvchi emas, balki “maqsadga intiluvchi, zukko inson” ma'nosida ham qo'llanadi;

“*Cho'pon*” - “podani boqadigan” emas, balki “rahbar, yo'l ko'rsatuvchi shaxs” timsoli sifatida ishlatiladi;

“*Temirchi*” - “temir bilan ishlovchi usta”dan tashqari “irodasi mustahkam, qat'iy inson” ramzi bo'lgan [2, 50].

Bu so'zlar orqali M. Koshg'ariy tilda semantik kengayish hodisasini, ya'ni kasbiy faoliyatning ijtimoiy timsollarga aylanish jarayonini ko'rsatadi

Quyida ijtimoiy-ma'naviy funksiyasi yoritilgan:

Kasb-hunar leksikasi tildagi soddaligi bilan birga, xalqning ijtimoiy ongini ham ifodalaydi. U o'sha davr jamiyatida mehnat qadri, ustoz-shogird an'anasi, ijtimoiy tabaqalanish kabi tushunchalarning shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Masalan:

“*Dehqon*” so'zi mehnatsevarlik, baraka timsoli sifatida xalq dunyoqarashiga singgan;

“*Bek*” esa ijtimoiy mavqe va hokimiyat ifodasi bo'lib, jamiyat ierarxiyasini ko'rsatgan;

“*Ustoz*” - faqat o'qituvchi emas, balki ma'naviy rahnamolik ramzi sifatida ishlatilgan [5].

Bu jihatlar “Devonu lug'ot it-turk”ni faqat lug'at emas, balki ijtimoiy-madaniy model sifatida talqin qilish imkonini beradi.

“Devonu lug'ot it-turk” kasb-hunar leksikasining semantik tarmoqlanish va ma'no qatlamlari haqida ayrim mulohazalarimizni bildirib o'tamiz.

Kasb-hunar nomlari semantik jihatdan quyidagi qatlamlarga bo'linadi:

Qatlam	Tavsif	Misollar
1. Asliy (denotativ)	Kasbni bevosita bildiruvchi birliklar	<i>temirchi, bo'zchi, so'fchi</i>
2. Metaforik (ko'chma)	Ramziy yoki ruhiy ma'noda ishlatilgan so'zlar	<i>cho'pon (rahbar), ustoz (murabbiy)</i>

3.Ijtimoiy- tabaqaviy	Jamiyatdagi maqom va vazifani bildiruvchi atamalar	<i>bek, amir, hunarmand, savdogar</i>
----------------------------------	--	---

Bu qatlamlar orqali tilning ma’no tizimi bilan bir qatorda, o’sha davr jamiyatining mehnat tuzilmasi va axloqiy qadriyatlari ham ochiladi.

“Devonu lug‘ot it-turk”dagi ba’zi kasb nomlari keyingi asrlarda mistik ramzlarga aylangan.

Masalan:

“Temirchi” - qalbni “poklovchi”, insonni “ruhiy ishlovchi” timsolida;

“Bo‘zchi” - poklik, halollikni ifodalovchi belgida;

“Cho‘pon” - murshid, xalqni hidoyatga yetaklovchi timsol sifatida qo‘llanadi [6].

Bu metaforalar til bilan ma’naviyatning bir-biriga qanchalik chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi [6, 105]. Shunday qilib, M. Koshg‘ariy til orqali xalqning diniy-estetik tafakkurini ham ifodalay olgan.

“Devonu lug‘ot it-turk”dagi kasb-hunar leksikasi turkiy xalqlarning ijtimoiy, madaniy va ruhiy hayotini aks ettiruvchi noyob lisoniy qatlamdir.

Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zlarni nafaqat ma’nodoshlik yoki grammatik nuqtayi nazardan, balki ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida tahlil qilgan.

Asarda kasb-hunar nomlari:

A) asliy (mehnat faoliyatini bildiruvchi);

B) ko‘chma (ramziy ma’noli);

C) ijtimoiy (mavqe ifodalovchi) katta ma’no tizimini tashkil etadi.

Demak, bu leksik qatlam - turkiy xalqlar tafakkuri, qadriyati va mehnat madaniyatini ifodalovchi til va tarix uyg‘unligi namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘ot it-turk. -Toshkent: Fan, 1960.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili leksikasi va semantikasi masalalari. - Toshkent: Fan, 1981.
3. Jo‘rayev M. Turkiy tillarda ijtimoiy leksika. - Samarqand: SamDU nashr., 2008.
4. Qosimov B. Til va tafakkur uyg‘unligi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.
6. Rustamov N. Turkiy tillarda metaforik leksika taraqqiyoti. - Buxoro, 2019.